

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING JAMOAT JOYLARIDA BEZORILIKNI OLDINI OLIISH BUYICHA FAOLIYATI

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 312-guruh kursanti
Olaberganov Asror Marks o`g`li

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqola mavzusining dolzarbligi shundaki, profilaktika inspektorining jamoat joylarida bezorilikni oldini olishga doir faoliyatini takomillashtirish buyicha tushunchasi, profilaktika chora-tadbirlarining bugungi kundagi holati va amalga oshirishning o`ziga xos xususiyatlari. Bundan tashqari profilaktika inspektorining jamoat joylarida bezorilikni oldini olishga doir faoliyatini takomillashtirish doirasidagi normalarning amaliyot tahlili hamda ushbu faoliyat doirasida yuritiladigan protsessual xujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo va kamchiliklar, shuningdek, ayrim turdagi mavjud muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo`yicha bir qator takliflar. profilaktika inspektorining jamoat joylarida bezorilikni oldini olishga doir faoliyatini takomillashtirishni tashkil etish bo`yicha ilg`or xorij tajribasi hamda milliy qonunchiligimizdan farqli va o`xshash tomonlari, shuningdek, yuqorida keltirib o`tilgan jihatlaridan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo`nalishlari yoritib o`tilgan.*

Annotation: *The relevance of the topic of this scientific article is the prevention inspector's understanding of how to improve the activity of preventing bullying in public places, the current state of preventive measures and the specifics of their implementation. In addition, a practical analysis of the norms within the framework of improving the activities of the prevention inspector to prevent bullying in public places, as well as procedural documents maintained within this activity, problems and shortcomings in this activity, as well as a number of proposals for eliminating certain types of existing problems and shortcomings. advanced foreign experience in organizing the improvement of the activities of the prevention inspector to prevent bullying in public places, as well as the differences and similarities from our national legislation, as well as the directions for improving this activity using the above-mentioned aspects, are highlighted.*

O`zbekiston Respublikasi istiqloлга erishgach jamiyatimizda tub burilish, o`zgarishlar boshlandi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish asosiy yo`nalishlardan biri etib belgilandi.

O`zbekiston jahonga yuz tutdi. Xorijiy davlatlar bilan yaqin hamkorlik o`rnatildi. Deyarli barcha sohalarda o`zara aloqalar yaxshilandi. Raqobat asosida ish yuritish jamiyatimiz xayotining me`zoniga aylandi. Xalqaro sport musobaqalarida san`at madaniyat kabi yo`nalishlarda ommaviy tadbirlar anjumanlar muntazam o`tkazib borilishi yo`lga ko`yildi.

Bularning hammasi jamoat joylarida aholining gavjumlashishini kuchaytirdi, bu esa jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta`minlash masalalarini birmuncha murakkablashtirdi.

Aholi tinchligi, osoyishtaligini ta'minlash, barqarorlikni saqlash eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi "Hozirgi kunda ijtimoiy, totuvlikni, ijtimoiy tinchlik va barqarorlikni ta'minlash biz uchun milliy davlatchilik vujudga kelishi mustaxkamlanishida, adolatli ijtimoiy tuzumni qaror toptirishga chindan ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmoqda"

Jamoat tartibi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan bezorilik jinoyati ijtimoiy xavfliligi jihatdan jamoat tartibiga jiddiy tahdid soladi. Bezorilik jinoyati jamiyatda o'rnatilgan yurish-turish qoidalarini hamda jamoat osoyishtaligini buzadi. SHu bilan birga mazkur jinoyat sodir etilish natijasida fuqarolarning sog'ligiga, mulkiga va umum e'tirof etilgan ahloq normalariga putur yetkazadi.

Bezorilik jinoyatining bevosita ob'yekti jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Ko'shimcha bevosita ob'yekti esa shaxslarning sog'ligi va mulkiy munosabatlar va boshqalar tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sud plenumining bezorilikka oid sud amaliyoti huquqidagi 2002-yil 14-iyundagi 9-sonli qarorida ta'kidlanishicha bezorilik - jamoat tartibiga qarshi qaratilgan jinoyat bo'lib jamiyatda yurish-turish qoidalarini qacddan mensimaslikda ifodalangan harakatlar shaxsni urish, do'pposlash badanga yengil shikast yetkazish yoki o'zganing mulkiga ancha miqdorda shikast yetkazish yoxud nobud qilish bilan bog'liq holda sodir etiladi.

Bezorilik huquqbuzarligi - asosan axloqqa zid xulq-atvor yoki aybdorda agressiya, g'azab va boshqa salbiy emotsiyalar va holatlarni kuchaytiruvchi g'ayriqonuniy xulq-atvori sabab bo'ladi. Bezorilikda qacd ba'zan qo'rqitish, jismoniy zo'rlik ishlatish, do'p-poslash, tahqirlash, haqorat qilish, qo'pol yoki shafqatsiz muo-malada bo'lish, moddiy zarar yetkazish va hokazolar ta'siri os-tida vujudga keladi.

Demak, xuquqbuzarlar va jabrlanuvchilarning aynan shu ikki guruhga mansub bo'lgan yoshda bo'lganliklari profilaktika ishlarini tashkil etish va amalga oshirishda katta ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda. SHuningdek, bezorilik huquqbuzarligini sodir etishda aybdor bo'lgan va jabrlanganlarning ma'rifiy ma'lumotlari quyidagicha nisbatlarga ega.

Jinoyatchilar o'rtasidagi o'zaro nisbat quyidagicha:

- ishchilar (davlat va xususiy sektorga oid ishlab chiqarish tarmoqlarida) - 3,7%;
- xizmatchilar - 3,5%;
- qishloq xo'jaligi bilan band bo'lganlar (fermer va klaster xo'jaligidagi ishchilarni ham qo'shganda) - 5,8%;
- nafaqaxurlar - 6,9%;
- uy bekalari - 9,3%;
- o'rta maktab, litsey, va oliy o'quv yurtlarida taxsil olayotganlari - 4,3%;
- ishsizlar - 63,9%;
- jazoni ijro etish muassasalarida jazo o'tayotgan maxkumlar - 2,5%.

YUqoridagi ko'rsatkichlardan ko'rinib turibdiki, bezorilik huquqbuzarliklari, asosan, ish faoliyatiga yega bulmagan shaxslar o'rtasida ko'pchilikni tashkil etadi. SHu bilan birga, ta'kidlash joizki, hozirgi davrda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy - siyosiy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelayotgan ishsizlarning o'ziga xos toifalari o'rtasidagi huquqbuzarlik sabablarining tahlili ham bu toifadagi aholi qatlamining o'ziga xos kriminologik xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo etmoqda.

Profilaktika inspektorlari ma'muriy hududda sodir etilayotgan jamoat tartibiga qarshi huquqbuzarliklar, xamda, bezorilik huquqbuzarliklarini oldini olishda kuydagi ishlarni amalga oshirish lozim:

-ma'muriy hududni doimiy profilaktik kuzdan kechirish va kiriminogen vaziyatni tahlil qilib borish;

-ma'muriy hududda jamoat tartibni saqlash va fuqarolar xavfsizlini, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkini ximoya qilinishini ta'minlash;

-ma'muriy hududda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktik ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

-fuqarolarning murojaatlari, ariza va shikoyatlarini uz vaqtida ko'rib chiqish xamda hal etish;

-ma'muriy huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf yetish borasidagi ishlarni hal etish;

-ma'muriy hududda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va ularni tezda o'z vaqtida fosh etish choralarni ko'rish;

-ilgari jinoyat sodir etib sud va tergov organlaridan yashirinib yurgan, bedarak yuqolgan, ahloq tuzatish ishlari tarikasida jazodan bo'yin tovlayotgan mahkumlarni qidirib topish;

-ozodlikdan maxrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga (ozodlikni cheklash, muayyan huquqdan mahrum etish, shartli hukm qilish va ahloq tuzatish ishlari) hukm qilingan shaxslarga nisbatan profilaktik nazorat chora - tadbirlarini amalga oshirish;

-axoli bilan hisobot uchrashuvlari tashkil etish va shu kabi boshqa uchrashuvlarni tez-tez o'tkazish va boshqalar.

Bundan tashqari profilaktika inspektorlari bezorilik xuquqbuzarliklarini oldini olishda fuqarolarning huquqiy ongi va xuquqiy madaniyatini yuksaltirishi, shuningdek yoshlar bilan tashqiliy-tarbiyaviy, ommaviy sport tadbirlarini o'tkazgan holda, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlashlariga e'tibor qaratishlashlari lozim.

Ilniy o'rganishimiz natijasida bugungi kunda, Profilaktika inspektorining kriminogen vaziyatni tahlil etish faoliyatini o'rganish va baxolashda shubxasiz bezorilik huquqbuzarligi sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralari ko'rilmogda. Mamlakat ichidagi jinoyatchilik doimo davlat organlari va jamoatchilik tomonidan qattiq nazorat qilib boriladi. Jinoyatchilik keng avj olib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bir qator uzoq muddatli chora-tadbirlar ishlab chiqilmogda va ular jinoyatchilikka qarshi kurash strategiyasini belgilab beradi. Har qanday jamiyatda jinoyatchilikka qarshi kurash, uning sabab va sharoitlarini bartaraf qilish eng asosiy dolzarb muommalardan biridir.

Xozirgi kunda bezorilik huquqbuzarliklarini bartaraf etishda Profilaktika inspektorlari oldida bir qator muammo va kamchiliklar mavjud:

1. Profilaktika inspektorlarining mamuriy hududda huquqbuzarliklarni oldini olishda yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'lmagani shuningdek tashkilotchilik va tashabbuskorlik xislatlarining yetarli darajada shakllantirilmaganli natijasida ish jarayonini tashkillashtirishda bir qator muammo va kamchiliklar uchrab turibdi,

2. ma'muriy hududda soxaviy xizmatlar va jamoat tuzilmalari bilan hamkorligi sustlashib ketganligi,

3. zamonaviy texnika, jumladan, kuzatuv kameralarining hali hududda to'lik o'rnatilmaganligi va fyqarolar bilan hamkorlik yetarli darajada sezilmayapti.

4. Jamoat joylarida sodir yetilyotgan xuquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olishda fuqarolar va jamoat tashkilotlarinig loqaydligi, ye'tiborsizligi, jamoat tartibini saqlashda XMQO larga kumaklashishni "ortiqcha ovoragarchilik" degan xulosaga kelib qolganligi. Ularning xuquqiy ongi va madaniyatini xaligacha pastligi.

5. Jamoat joylarida sodir yetilyotgan xuquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olish jarayonida ayrim fuqarolar tomonidan IIO lari xodimlarini tasvirga olib turli xil yolg'on ma'lumotlar ostida ijtimoiy tarmoqlarda tarqatib yuborilayotganligi, bu xolat xalq ongida IIOlari xodimlariga nisbatan nafratini oshirayotganligi,

Ushbu muammo va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflarni beraman:

1. Profilaktika inspektorlari lavozimiga tashkilotchilik, tashabbuskorlik, keng fikrlik kobilyatiga ega, huquqshunos va yeng asosiysi pedagogik-psixiologik bilimlarga ega hayotiy va mahalliy tajribasi yuqori bo'lgan xodimlarni ishga tayyorlash;

2. Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari xamda milliy gvardiya bilan xamkorlikda kriminogen xududlarda doimiy nazoratni tashkil qilish. Xuquqbuzarliklar Profilaktikasida faol hamkorlik qiladigan, jamoat tartibini va jamoat xavfsizligini ta'minlashda doimiy ravishda ishtirok etuvchi fyqarolarni moddiy rag'banlantirishni keng yo'lga ko'yish, kompleks chora tadbirlarini amalga oshirish.

3. Ma'muriy hududda kriminogen vaziyat yuqori bo'lgan joylarda va aholi gavjum bo'lib to'planadigan jamoat joylarda, IIO lari navbatchilik qismiga bog'langan "SOS" chaqiruv signalini ishga tushirish xamda, kuzatuv kameralarini o'rnatish va uni tayanch punktida yangidan boshkaruv bazasini shakllantirilishi

4. Xudud profilaktika inspektorlarini faoliyati fuqarolar tomonidan turli xil tuxmatlarga va noroziliklarga sabab bulmasligi uchun profilaktika inspektorlarini "BODI KAMERALAR" bilan ta'minlash.

5. Jamoat tartibini buzishga moyil shaxslar ruyxati maxalla kesimida shakllantirilib, ular bilan aloxida profilaktik tadbirlarni tashkillashtirish.

6. Ma'muriy xududda joylashgan srirtli ichimlik dukonlari, kafe, barlar, xamda turli xil kungilochar maskanlarning xududida sodir yetilgan bezorilik xarakatlari uchun usha tadbirkor



yoki yuridik shaxsga xam qonunda javobgarlikni belgilovchi xuquqiy norma kiritish (ushbu chora tadbirkor yoki yuridik shaxsning ye'tiborsizligi va loqaydligini oldini oladi).